



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA G'AYRIQONUNIY MIGRATSIYANI TASHKIL ETISH UCHUN JAVOBGARLIKNI JORIY ETISH MASALALARI

To'lginova Visola Ulug'bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

E-mail: visolatolqinova05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21064581>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 28-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 30-iyun 2026 yil

KEY WORDS

g'ayriqonuniy migratsiya, davlat chegarasini qonunga xilof kesib o'tish, migratsiyani tashkil etish, uyushgan guruh, jinoyat-huquqiy javobgarlik, qiyosiy huquqshunoslik, kriminologiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "G'ayriqonuniy migratsiyani tashkil etish" deb atalgan alohida modda (223¹-modda) kiritish nega zarurligi tahlil qilinadi. Muallif MDH hamda boshqa bir qator xorijiy davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Ukraina, XXR, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya) jinoyat qonunchiligidagi shunga o'xshash normalarni qiyoslaydi, sud amaliyotidan olingan misollar orqali bunday jinoyatning ijtimoiy xavfi qanchalik yuqori ekanini ko'rsatib beradi. Tahlil yakunida taklif etilayotgan moddaning dispozitsiyasi va sanksiyasi yuzasidan aniq xulosalar keltiriladi.

Dunyoda integratsiya jarayonlarining tezlashuvi, geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi va iqtisodiy ahvolning og'irlashuvi odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishini jadallashtirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra BMT DESA ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda xalqaro migrantlar soni 304 million kishiga yetdi — bu 1990 yildagi ko'rsatkichdan deyarli ikki baravar ko'p. Bu esa, o'z navbatida, g'ayriqonuniy migratsiyaning ham ko'payishiga olib keladi¹. Bunday oqimlar davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish hollari bilan chambarchas bog'liq; shu bois jinoyat qonunchiligini bu yo'nalishda takomillashtirish kun tartibidagi muhim masalaga aylanib bormoqda.

Amaldagi Jinoyat kodeksining 223-moddasi "Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish" uchun javobgarlikni belgilaydi. Biroq bu modda faqat bir kishining davlat chegarasini o'zi shaxsan kesib o'tishi bilan bog'liq harakatlar bilan cheklanadi. Holbuki, hayotda bundan kengroq hodisa — boshqa shaxslarning, ya'ni chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mamlakatga noqonuniy kirishini, uning hududida noqonuniy turishini yoki hudud orqali noqonuniy o'tib ketishini *tashkil etuvchi* shaxslarning faoliyati keng tarqalgan va buning ijtimoiy xavfi ancha yuqori. Shunga qaramay, amaldagi qonunchilikda ayni shu "tashkil etish" harakati uchun alohida javobgarlik ko'zda tutilmagan.

¹<https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migrant-stock>

Maqolaning maqsadi — Jinoyat kodeksiga “G’ayriqonuniy migratsiyani tashkil etish” degan alohida modda (223¹-modda) kiritish zarurligini ilmiy jihatdan asoslash, xorijiy davlatlar tajribasini qiyoslab o’rganish hamda taklif etilayotgan moddaning tuzilishini ko’rib chiqishdan iborat.

Asosiy qism

Jinoyat kodeksining 223-moddasi tuzilishiga ko’ra faqat bevosita ijrochining — ya’ni davlat chegarasini o’zi kesib o’tgan shaxsning — harakatini qamrab oladi. Boshqalarning g’ayriqonuniy migratsiyani *tashkil etishi*, ya’ni unga ko’maklashish, vositachilik qilish, guruh uyushtirish yoki bu yo’lda “xizmat ko’rsatish” kabi harakatlari esa amaldagi modda doirasidan chetda qoladi. Bunday hollarni hozircha faqat Jinoyat kodeksining umumiy qismidagi ishtirokchilik qoidalari (tayyorgarlik ko’rish, yordam berish) orqali baholash mumkin, ammo bu yondashuv mazkur faoliyatning o’ziga xos ijtimoiy xavfini to’la ko’rsata olmaydi.

Tadqiqot jarayonida o’rganilgan tahliliy ma’lumotlar ham shu xulosani tasdiqlaydi. Mavzuning bugungi dolzarbligi raqamlarda yaqqol ko’rinadi. 2024-yil oxiriga kelib xorijda, asosan Rossiya Federatsiyasida mehnat qilayotgan o’zbekistonliklar soni 2 milliondan 1,35 millionga tushgan bo’lsa-da², noqonuniy migratsiya oqimlari yangi yo’nalishlar bo’ylab kengaymoqda ya’ni 2023–2024-yillarda AQSh janubiy chegarasida 2,900 dan ortiq, Meksikada esa 1,079 nafar o’zbekistonlik noqonuniy migrant qayd etilgan³. Bundan ham muhimi — 2026-yil fevralda AQSh Davlat departamenti O’zbekiston hududidan ushbu marshrutlarni bevosita tashkillashtirgan shaxslarga nisbatan viza cheklovlari joriy etdi⁴. Bu misol g’ayriqonuniy migratsiyani tashkil etish faoliyati muntazam, takror-takror sodir etiladigan va daromad keltiradigan ish ekani, shu bois oddiy chegarani kesib o’tishga nisbatan ijtimoiy xavfi ancha yuqori ekanini ko’rsatadi.

Ilmiy adabiyotda ham bu masalaga alohida to’xtalib o’tilgan. Jumladan, T.F.Xudina noqonuniy migratsiyani tashkil etish ko’payishining sabablari orasida vizasiz rejim amal qilishi va nazoratning sustaligini ko’rsatadi⁵, N.V.Samoylyuk esa chegaradosh hududlar aholisi o’rtasidagi madaniy va etnik yaqinlik xuddi shu turdagi jinoyatchilikka qo’l kelishini ta’kidlaydi⁶. Bundan tashqari, davlat idoralari ishida “rasmiy”, “yarim rasmiy” va “soyali” tuzilmalarning nazoratdan chetda qolishi⁷, shuningdek bunday jinoyatlarning turistik firmalar va qo’shma korxonalar faoliyati ortiga berkitilishi alohida tashkiliy omil sifatida qayd etiladi.

O’zbekistondan farqli ravishda, ko’plab xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida g’ayriqonuniy migratsiyani tashkil etganlik uchun alohida javobgarlik ko’zda tutilgan. Masalan,

²<https://www.gazeta.uz/en/2025/01/22/migrant/>

³<https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbd12566/files/Publications/ozbekiston-migratsiya-vaziyatiga-oid-hisobot-2024-yil-yanvar-mart.pdf>

⁴U.S. Department of State. (2026, February). *Imposition of visa restrictions on Uzbekistanis facilitating illegal immigration to the United States*. <https://www.state.gov/releases/office-of-the-spokesperson/2026/02/imposition-of-visa-restrictions-on-uzbekistanis-facilitating-illegal-immigration-to-the-united-states/>

⁵Худина, Т. Ф. (2008). Некоторые причины роста организации незаконной миграции. Российский следователь, (1), 27-30.

⁶Самойлюк, Н. В. (2009). Детерминанты незаконной иммиграции на территории Дальневосточного федерального округа. Миграционное право, (3), 46-48.

⁷Allanova A.A. *Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O’zbekiston Respublikasiga kirish uchun javobgarlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolar*: yuridik fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2020. – B. 45.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tganlik uchun javobgarlikdan (322-modda) tashqari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi yo'q shaxslarni Rossiyaga noqonuniy olib kirish, u yerda noqonuniy saqlash yoki Rossiya orqali boshqa davlatga noqonuniy o'tkazishni uyushtirganlik uchun ham alohida javobgarlik belgilagan⁸. **Gruziya** tajribasi haqida muhokma qiladigan bo'lsak, Gruziya Jinoyat kodeksining 344¹-moddasida migrantlarni davlat chegarasidan noqonuniy olib o'tish hamda (yoki) ularning Gruziya hududida noqonuniy qolishi uchun sharoit yaratish (vositachilik) uchun alohida javobgarlik belgilangan⁹. Qolaversa, Gruziya Konstitutsiyasiga ko'ra, siyosiy boshpana so'rab kelgan va odam savdosidan jabr ko'rgan shaxslarga nisbatan bu norma qo'llanilmaydi — inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan bu juda qoniqarli yondashuv hisoblanadi. **Xitoy Xalq Respublikasi** Jinoyat kodeksining 318–321-moddalarida davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tishni uyushtirish, buning uchun soxta hujjat tayyorlash yoki tarqatish hamda odamlarni tashish uchun har biri alohida javobgarlik belgilangan; bu harakatlarning guruh bo'lib sodir etilishi, jabrlanuvchiga og'ir shikast yetkazilishi yoki uning o'limiga sabab bo'lishi esa og'irlashtiruvchi hol hisoblanadi¹⁰. Bunday tarmoqlab, har bir harakatni alohida qamrab oluvchi yondashuv normaning amaldagi samarasini oshiradi. **Buyuk Britaniya** 2016 yilgi Immigratsiya to'g'risidagi qonuni orqali noqonuniy mehnat migratsiyasi va bandlikni tartibga soladi; bunda jinoyat sodir etilgan hududga (Angliya/Uels yoki Shotlandiya/Shimoliy Irlandiya) qarab turli jazo choralari ko'zda tutilgan¹¹. **AQSH** qonunchiligida esa "Immigratsiya va fuqarolik to'g'risida"gi qonunning 274-moddasi noqonuniy migratsiyani tashkil etganlik uchun 10 yilgacha, agar bu qilmish jabrlanuvchining o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa — 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etishni belgilaydi; 274a, 274s va 274d-moddalarida esa mehnat muhojirini noqonuniy ishga jalb etish, hujjatlarni soxtalashtirish va mamlakatdan chiqib ketish talabini bajarmaslik uchun mol-mulkiy javobgarlik ko'zda tutilgan¹². AQSH tajribasi jazoni oqibatga qarab og'irlashtirgani bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, MDH davlatlarining deyarli barchasida, shuningdek bir qator Yevropa va Osiyo davlatlarida noqonuniy migratsiyani tashkil etish mustaqil jinoyat tarkibi sifatida qayd etilgan. Shu ma'noda O'zbekiston qonunchiligidagi bu bo'shliqni to'ldirish ham milliy jinoyat siyosatini xalqaro andozalarga moslashtirish, ham amaliy zarurat nuqtai nazaridan asoslidir.

Yuqorida keltirilgan asoslardan kelib chiqib, Jinoyat kodeksiga "G'ayriqonuniy migratsiyani tashkil etish" deb atalgan 223¹-moddani quyidagi tahrirda kiritish taklif etiladi:

"223¹-modda. G'ayriqonuniy migratsiyani tashkil etish

⁸Rossiya Federatsiyasi. (1996). *Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi* (1996-yil 13-iyundagi 63-FZ-son qonun, amaldagi tahrirda). Olingan manba: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/

⁹Gruziya. (1999). *Gruziya Jinoyat kodeksi* (1999-yil 22-iyuldagi 2287-son Qonun, amaldagi tahrirda). <https://matsne.gov.ge/en/document/view/16426>

¹⁰Xitoy Xalq Respublikasi. (2023). *Xitoy Xalq Respublikasining Jinoyat kodeksi* (amaldagi tahrirda). PKULaw Database <https://npcobserver.com/legislation/criminal-law/>

¹¹United Kingdom. (2016). *Immigration Act 2016* (c. 19). UK Legislation. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2016/19>

¹²United States Code, Title 18 (1996). Immigration and Nationality Act, § 274. Office of the Law Revision Counsel. <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/18>

Chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga qonunga xilof ravishda kirishini, ular O'zbekiston Respublikasida g'ayriqonuniy bo'lishini yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali qonunga xilof ravishda o'tishini tashkil qilish, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) boshqa davlat hududida jinoyat sodir etish maqsadida;

b) xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun, shuningdek, odam savdosidan jabrlangan shaxslarning kirish hujjatlarini tegishli darajada rasmiylashtirmasdan O'zbekiston Respublikasiga kelgan fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadilar".

Taklif etilayotgan moddaning tuzilishini tahlil qilganda, bir necha jihatga e'tibor berish kerak.

Birinchidan, moddaning asosiy tarkibi (birinchi qism) uchta mustaqil harakatni — (a) noqonuniy kirishni tashkil qilish, (b) noqonuniy turishni tashkil qilish va (v) hudud orqali noqonuniy o'tishni tashkil qilishni — qamrab oladi. Bu yondashuv amaliyotda uchraydigan barcha asosiy usullarni, jumladan hozirgi kunda ommalashib borayotgan "tranzit" sxemalarini to'la qamrab olishga imkon beradi.

Ikkinchidan, og'irlashtiruvchi holatlar tizimi (ikkinchi va uchinchi qismlar) xorijiy davlatlar tajribasi asosida tuzilgan ya'ni qilmishning "bir guruh shaxs tomonidan oldindan til biriktirib" yoki "uyushgan jinoiy guruh tomonidan" sodir etilishi Rossiya va Ozarbayjon qonunchiligidagi yondashuvga hamohangdir; "xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilishi" belgisi esa mansabdor shaxslarning korrupsion ishtirokini hisobga olib kiritilgan bo'lib, u Germaniya qonunchiligidagi "kasb tarzida sodir etish" tamoyiliga yaqinligi alohida ahamiyatlidir.

Uchinchidan, moddaning oxirgi qismida siyosiy boshpana huquqidan foydalanayotgan hamda odam savdosi qurboni bo'lgan shaxslarni javobgarlikdan ozod etish qoidasi ko'zda tutilgan. Bu — Gruziya va Moldova qonunchiligidagi, inson huquqlarining xalqaro standartlariga mos yondashuvning milliy qonunchilikka singdirilishini bildiradi hamda moddaning insonparvarlik tamoyillariga zid emasligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, taklif etilayotgan modda amaldagi 223-moddadan (davlat chegarasini shaxsan kesib o'tish) obyekti jihatidan farq qiladi: 223-modda davlat boshqaruvi tartibi va chegara xavfsizligini, taklif etilayotgan 223¹-modda esa bundan tashqari migratsiyani tartibga soluvchi munosabatlarni hamda odamlarning shu "xizmat"lardan foydalanish chog'ida ekspluatatsiya qilinishdan himoyalanih huquqini ham qamrab oladi. Shu bois bu ikki modda bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi Jinoyat kodeksining 223-moddasi asosan davlat chegarasini qonunga xilof ravishda bevosita kesib o'tish harakatlarini qamrab oladi. Biroq ushbu norma noqonuniy migratsiya jarayonini tashkil etuvchi, unga ko'maklashuvchi, vositachilik qiluvchi yoki ushbu faoliyatdan moddiy manfaatdor bo'lgan shaxslarning xatti-harakatlarini mustaqil jinoyat tarkibi sifatida to'liq qamrab olmaydi. Natijada g'ayriqonuniy migratsiya bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarning ayrim shakllarini jinoyat-huquqiy baholashda muayyan bo'shliqlar yuzaga kelmoqda.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari Rossiya, Tojikiston, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Ukraina, shuningdek Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH va Buyuk Britaniya qonunchiligida g'ayriqonuniy migratsiyani tashkil etganlik uchun alohida jinoiy javobgarlik nazarda tutilganligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv migratsiya jarayonlarini nazorat qilish, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda davlat chegaralari xavfsizligini ta'minlashda samarali huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "G'ayriqonuniy migratsiyani tashkil etish" nomli 223¹-modda kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur moddada noqonuniy migratsiyani tashkil etish, unga ko'maklashish, soxta hujjatlar tayyorlash yoki taqdim etish, yashash joyi va transport vositalari bilan ta'minlash kabi harakatlarning aniq belgilanishi huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, qilmishning uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi, mansab yoki xizmat mavqeidan foydalanilgan holda amalga oshirilishi hamda takroran sodir etilishi kabi holatlarni og'irlashtiruvchi belgilar sifatida mustahkamlash zarur.

Bundan tashqari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va insonparvarlik mezonlaridan kelib chiqib, siyosiy boshpana izlovchilar hamda odam savdosi qurbonlariga nisbatan istisno qoidalarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu takliflarning qonunchilikka joriy etilishi g'ayriqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, davlat chegaralari daxlsizligini ta'minlash hamda migratsiya sohasidagi jinoiy-huquqiy mexanizmlarni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.
3. Russian Federation. (1996). Criminal Code of the Russian Federation No. 63-FZ of June 13, 1996 (as amended). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/
4. Georgia. (1999). Criminal Code of Georgia (Law No. 2287 of July 22, 1999, as amended). <https://matsne.gov.ge/en/document/view/16426>
5. People's Republic of China. (2024). Criminal Law of the People's Republic of China. <https://npcobserver.com/legislation/criminal-law/>
6. United Kingdom. (2016). Immigration Act 2016 (c. 19). <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2016/19>
7. United States Congress. Immigration and Nationality Act, 8 U.S.C. §1324. <https://www.uscis.gov/laws-and-policy/legislation/immigration-and-nationality-act>
8. Allanova, A. A. (2020). Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun javobgarlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolar. Yuridik

fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent.

9. Khudina, T. F. Noqonuniy migratsiyani tashkil etish jinoyatlarining kriminologik xususiyatlari va ularning oldini olish muammolari.

10. Samoylyuk, N. V. Noqonuniy migratsiyani tashkil etish bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik omillari va chegaradosh hududlardagi xususiyatlari.

11. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). (2024). International Migrant Stock 2024. United Nations. <https://www.un.org/development/desa>

12. International Organization for Migration (IOM). (2024). World Migration Report 2024. Geneva: IOM.

